

Shahar Aholisini Jamoat Transportida Tashishda Harakat Muntazamligini Oshirish Yo‘llari (Termiz Shahar 15-Yo‘Nalishli Avtobus Misolida)

Primkulov Bekzod Sheraliyevich

Dotsent, (PhD), Termiz muhandislik-texnologiya instituti

bekzod8788@mail.ru

Choriyev Bekzod Urazovich

Magistrant, Termiz muhandislik-texnologiya instituti

bekzodchoriyev0097@mail.com

ANNOTATSIYA Mazkur tadqiqot ishida jamoat transportida yo‘lovchilarni tashishda yo‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning samaradorligini oshirish yo‘llari, xususan bekatlarning o‘tkazish qobiliyatini oshirish asosida yo‘lovchilarga qulayliklar yaratish haqida so‘z yuritilgan. Bu borada yo‘lovchilarni tashishda yangicha va zamoviy texnologiyalarni ishlab chiqish, ushbu faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, muammolarni tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: transport, yo‘lovchilar, smart bekat, displey, geo-tracker.


ANNOTATION In this research work, it is discussed ways to improve the efficiency of services provided to passengers in public transport, in particular, to create amenities for passengers based on increasing the capacity of stations. In this regard, proposals were made for the development of new and modern technologies for passenger transportation, the implementation of scientific research in these areas of activity, the analysis and elimination of problems.

Key words: transport, passengers, smart station, display, geo-tracker.

KIRISH So‘nggi yillarda aholiga avtotransport xizmati ko‘rsatishni yaxshilash, jamoat transporti yo‘nalishlari tarmog‘ini kengaytirish va harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar bilan yangilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-son qarorida Termiz shahrida jamoat transporti tizimini takomillashtirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI” ishlab chiqildi.

Aholining yuqori sifatli va qulay yo‘lovchi tashish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirish, sohada bozor tamoyillarini joriy etish, xususan moliyalashtirish tizimi va tarif siyosatini takomillashtirish, shuningdek mazkur faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, muammolarni tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha ushbu tadqiqot ishida takliflar berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI Hozirgi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarish kuchlarining transportga bo‘lgan xarajatlarini sezilarli darajada tejash-bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot va butun iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshiradi. Buning uchun esa transport-logistika sohasini rivojlantirish zarurdir. Yo‘lovchi tashishning asosiy maqsad va vazifasi aholining transportga bo‘lgan ehtiyojini kerakli sifatda qondirishdan iborat. Shahar jamoat transporti tizimida yo‘lovchi tashish sifatini oshirish uchun jamiyatning transport sohasidagi ehtiyojlari oldiga bir qator masalalar qo‘yilgan. Bu borada Termiz shahridagi 15-



yo‘nalishdagi jamoat transportining marshrutdagi faoliyati tahlillar va kuzatuvlar asosida o‘rganib chiqildi.

Aholiga xizmat ko‘rsatishda shahar yo‘lovchi transporti sifatini oshirish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu yo‘nalish yirik shaharlarda eng katta ahamiyatga ega, chunki shaxsiy transportdan foydalanadigan aholining soni keskin ortishi bilan jamoat transportining rentabelligi pasayadi va shuning uchun transportni tashkil etish samaradorligiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Jamoat transporti sifatini yaxshilash muammosiga ko‘plab ishlar bag‘ishlangan bo‘lishiga qaramay, tadqiqotchilar yo‘lovchi tashishning sifat ko‘rsatkichlari va ularning standart qiymatlari bo‘yicha aniq bir fikrga kelishmagan.


Aniq mezon va talablarning to‘liq bajarilmayotganligi ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatiga ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi, bu esa o‘z navbatida harakatlanuvchi tarkibning marshrutlar bo‘yicha noaniq taqsimlanishiga hamda transport vositalarining ma‘lum interval bo‘ylab harakat qila olmasligiga olib keladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi ham aynan shahar yo‘nalishlari bo‘ylab yo‘lovchilarni tashish sifatini yaxshilashdir. Xususan, sinov tadqiqoti sifatida Termiz shahridagi 15-yo‘nalishli jamoat transportining harakat intervali kuzatuvlar orqali o‘rganilib, tahlil qilindi. Bunda jamoat transportining hozirgi harakatdagi holati va faqat bekatlarda to‘xtash orqali yo‘lovchilarni chiqarib-turishi o‘zaro taqqoslandi.

T/R	To‘xtash bekatlari nomi	Masofasi, km	
		Punktlar orasida	Boshlang‘ich bekatda
1	Shimoliy avtoshoxbekat (Yashil Dunyo savdo majmuasi)	0	0
2	Olimpiya zahiralari kolleji	0.5	0.5
3	Surxon market	0.6	1.1
4	Ferudun restorani	0.7	1.8
5	Termiz davlat universiteti	0.8	2.6
6	Aloqachilar bekati	0.6	3.2
7	Turon bekati	0.5	3.7
8	“Korzinka” savdo markazi	0.4	4.1
9	Prezident maktabi	0.85	4.95
10	Temir yo‘l vokzali	0.6	5.55
11	Onkologiya shifoxonasi	0.74	6.29
12	OITS dispanseri	0.5	6.79
13	Sayrob bekati	0.74	7.53
14	Mashhura diagnostika klinikasi	1.3	8.83
15	Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi	0.95	9.78
16	Akademik litsiy	0.84	10.62
17	Qahramon mahalla	2.19	12.81
18	Termiz shahar avtoshoxbekat	1.0	13.81

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI. Sinovdagi jamoat transportining Termiz shahridagi Avtoshoxbekatdan “Yashil Dunyo” savdo majmuasigacha bo‘lgan qatnovdagi vaqti zamonaviy “Geo tracker” ilovasi orqali hisoblab chiqilganda, avtobus harakat vaqtida jami 40 marta to‘xtashlarni amalga oshirdi va belgilangan manzilga yetib borish uchun 43 daqiqa 34 soniya vaqt sarfladi.





1-rasm. Termiz shahridagi Avtoshoxbekatdan “Yashil Dunyo” savdo majmuasigacha bo‘lgan qatnovdagi joriy holat

Sinovning keyingi bosqichida geo-tracker ilovasi yordamida yo‘lovchilarning maksimal va minimal chiqib-tushishlari hisobga olinib, belgilangan standartlar asosida bekatlar ratsional joylashtirildi. Avtobus harakat vaqtida faqatgina belgilangan bekatlardagina to‘xtab harakatlandi hamda 18 marotaba to‘xtalishlarni amalga oshirdi. Sinov natijasida Avtobus 28 daqiqa 12 soniyada manzilga yetib keldi va bu ko‘rsatkichi bilan dastlabki holatdan **15 daqiqa 22 soniya tejab** manzilga ertaroq yetib keldi.




2-rasm. Termiz shahridagi Avtoshoxbekatdan “Yashil Dunyo” savdo majmuasigacha bo‘lgan taklif qilinayotgan holat

Xulosa Jamoat transportining harakat davomida bekatlarga to‘xtab turishidan tashqari to‘xtab behuda vaqt sarflashi yo‘lovchilarning manzillariga yetib borish vaqtlarini ma’lum muddatga kechiktiradi, avtobusning yoqilg‘i xarajatini oshiradi, shuningdek jamoat transportini yo‘lning qatnov qismiga to‘xtashi natijasida yo‘lning o‘tkazish qobiliyati bir muncha kamayib, piyodalar va boshqa avtotransportlar harakatiga xavf soladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Aholiga transport xizmati ko‘rsatish, hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Prezident qarori PQ № 2724, 10.01.2017 y.
2. Shamsutdin M. A. JAMOAT TRANSPORTI FAOLIYATIDA AVTOBUS BEKATLARINING O‘TKAZISH QOBILIYATINI OSHIRISH ASOSIDA SAMARADORLIKKA ERISHISH: JAMOAT TRANSPORTI FAOLIYATIDA AVTOBUS BEKATLARINING O‘TKAZISH QOBILIYATINI OSHIRISH ASOSIDA SAMARADORLIKKA ERISHISH. – 2023.
3. Baxtiyor o‘g‘li A. R. HAVONI TOZALASH FILTRIDAN O‘TAYOTGAN CHANG MIQDORINING SLINDR-PORSHEN GURUHINI YEYILISHIGA TA‘SIRI //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – C. 91.



-
4. Shamsutdin o'g'li M. A., Baxtiyor o'g'li A. R. ANALYSIS OF IMPROVING THE EFFICIENCY OF TERMIZ CITY PUBLIC TRANSPORT STATIONS //Intent Research Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 6-10.
 5. Shamsutdin o'g'li M. A. WHAT IS THE EFFICIENCY OF LOGISTICS IN SURKHANDARYA REGION? //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 36. – №. 2. – С. 104-106.
 6. Chori o'g'li X. A., Shamsutdin o'g'li M. A. THE USE OF EFFECTIVE METHODS IN TEACHING TRANSPORT LOGISTICS AND ENGINEERING //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 43. – №. 2. – С. 55-58.